DOI 10.5281/zenodo.8402510

Usmonova Oydin Sherali qizi
BuxDUPI Pedagogika nazariyasi va tarixi yo`nalishi
2 bosqich magistranti.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TALABALAR IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta`lim jarayonidagi ahamiyati,keng yoritilgan bo`lib,ulardan to`g`ri foydalanishning usullari ko`rsatib o`tilgan.
Kalit so`zlar: Interaktiv metodlar, innovatsiya,novatsiya, xususiy tajriba,innovatsion faoliyat kreativlik.
Abstract: This article discusses the importance of innovative pedagogical technologies in the educational process and shows how to use them properly.
Keywords: Interactive methods,innovation,novation,private experience,innovative activity,creativity.

Ta`lim va tarbiya sohasining to`xtovsiz ravishda takomillashib borishi uning sifat va samaradorligini oshirish uchun ,sohada jahon tan olgan innovatsiyalarni kiritish muhim ekanligini ko`rsatmoqda.Innovatsiya so`ziga qisqacha to`xtalib o`tamiz.Innovatsiya-ing ``innovation``yangilik kiritish,yangilik degan ma`noni bildiradi``.O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi`` da ushbu termin quyidagicha izohlangan:``Innovatsiya-(ingl.``innovationas``-kiritilgan yangilik,ixtiro)-1)texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta`minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag`lar; 2)Ilmiy-texnika yutuqlari va ilg`or tajribalarga asoslangan texnika,texnologiya,boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar,shuningdek,ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo`llanishi``[1].

``Ta`lim innovatsiyalari-Ta`lim sohasi yoki o`quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo`llanilib,avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl,metod va texnologiyalar``[2]

Bugungi kunda ta`lim jarayonida turli innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanishga bo`lgan qiziqish kundan –kunga ortmoqda.An`anaviy ta`limda talabalar bilimlarni tayyor holda o`rganishsa,zamonaviy texnologiyalar esa, ularga bilimlarni mustaqil ravishda o`rganib tahlil qilishga va xulosa berishga o`rgatadi.Har bir pedagog innovatsion faoliyatga ega bo`lmog`i va ko`p izlanishlar mobaynida uning xususiy tajribasiga aylanishi kerak.Biz ko`p hollarda novatsiya va innovatsiya tushunchalarini adashtiramiz.Agar ma`lum faoliyat qisqa muddatli bo`lib,sohaning ayrim elementlarini o`zgartirishga xizmat qilsa-novatsiya,aksincha faoliyat umumiy konseptual yondashuv asosida borib,sohani tubdan o`zgartirsa,va uning rivojlanishiga zamin yaratsa bu-innovatsiya hisoblanadi.Hozirgi kunda ta`lim tizimi innovatsion texnologiyalarga juda muhtoj.Ta`lim tizimida o`quv-biluv samaradorligini oshirish uchun ulardan to`g`ri foydalanish ,innovatsion va novatsion texnologiyalarning maqsad, vazifasini anglay olish va ta`lim-tarbiyaga qo`llashning tashkiliy asoslarini mohiyatan chuqur anglagan holda faoliyat ko`rsatish lozim.Pedagogning innovatsion faoliyatga tayyorlashning asosiy maqsadi shundan iboratki,-yangiliklarga intiluvchanlik

https://wordlyknowledge.uz

va uni yaratish hissini uyg`otish,interfaol metodlardan foydalanib dars va darsdan tashqari mashg`ulotlarni o`tkazish malakasini shakllantirish,o`z ustida ishlash ko`nikmasini rivojlantirish va kreativ fikrlashga o`rgatishdan iboratdir.Turli pedagogik muammolarni muvaffaqqiyatli hal etishi va faoliyati mobaynida yangi g`oyalarni izlashi,muhim va murakkab masalalarga yangicha yondashuv bilan kirishishi ham bevosita innovatsion faoliyatni to`g`ri anglay olish bilan bevosita bog`liq hisoblanadi.Jahon tajribalari shuni ko`rsatmoqdaki,zamonaviy pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi-o`qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga birgalikda erishishlari uchun to`g`ri va aniq tanlangan innovatsion texnologiyaga bog`liq.

Jumladan,ko`pgina rivojlanganAmerika,Germaniya,Finlandiya,Buyuk Britaniya va Niderlandiya kabi mamlakatlar ta`lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanibgina qolmay,yangi turlariga asos solishmoqda.Xulosa qilib shuni aytish joizki,ta `lim jarayonida va o`quv faoliyatida qo`llanilgan har qanday innovatsiyalar ko`zlangan maqsadga tez,oson,sifatli erishishning kafili,boshqarish va nazorat qilishga imkon beruvchi o`zgaruvchan mexanizmga egadir.Ularni qo`llashga sarflangan mablag` va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko`zda tutiladi.

Natijada esa ta`lim oluvchi(talaba) yuksak salohiyatli,keng dunyoqarashga ega,zamon talablariga mos kadr,o`rgangan bilim,ko`nikma,malakalarini amaliyotga tadbiq eta oladigan, berilgan imkoniyatlardan to`liq foydalanuvchi va egallagan sohasining yetuk mutaxassissi bo`lib yetishadi.Ta`lim beruvchi (o`qituvchi) esa ilmiy izlanishdan charchamaydigan,kasbiy va shaxsiy kompitentligini rivojlantiradigan,o`z ustida ishlaydigan,mas`uliyatli,dars jarayonini mahorat bilan san`at darajasiga yetkazadigan,minimal imkoniyatlardan maksimal natijaga erisha oladigan,sog`lom raqobatchi,ko`zlangan ta`limiy maqsadga qisqa fursat ichida erishadigan xodim bo`lib shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O`zbekiston milliy ensiklopediyasi.Zebuniso-Konigil /4-tom.Bosh tahrir hay`ati a`zolari :M.Aminov va b.:``O`zbekiston milliy ensiklopediyasi``Davlat ilmiy nashriyoti,2002.-169-bet

2.N.N.Azizxo`jayeva .Pedagogik texnologiyalar va pedagogic mahorat.O`quv qo`llanma.-T.:2006

https://wordlyknowledge.uz